



UO'K:811.512.133'255.4

Ramiza JUMAMURATOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: ramizajumamuratovaazamat@mail.ru
Jamila DJUMABAYEVA,
O'zMU professori, filologiya fanlari doktori

Filol.f.d., prof. G.Ergasheva taqrizi asosida

THE PROBLEM OF PROVIDING PRAGMATIC POTENTIAL IN THE TRANSLATION OF FICTION: KNOWLEDGE, SKILLS AND EXPERIENCE

Annotation

This article discusses the importance of the main aspects that should be considered in the translation of works of art, and mainly emphasizes the importance of the translator's knowledge, skills and experience gained in the process of engaging in literary translation in ensuring pragmatic potential. The opinions of scholars in this field are also presented and their reactions are expressed.
Key words: Pragmatic potential, pragmatic compatibility, linguistic compatibility, stylistic skills of the translator.

ПРОБЛЕМА ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАГМАТИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ПЕРЕВОДА: ЗНАНИЯ, НАВЫКИ И ОПЫТ

Аннотация

В данной статье рассматривается важность основных аспектов, которые следует учитывать при переводе литературных произведений, а также подчеркивается значение знаний, умений и опыта переводчика, приобретенных в процессе перевода литературных произведений, в обеспечении прагматического потенциала. Также были приведены мнения ученых в этой области и выражена реакция на них.

Ключевые слова: Прагматический потенциал, прагматическая совместимость, языковая совместимость, стилистическое мастерство переводчика.

BADIIY ASAR TARJIMASIDA PRAGMATIK POTENTIALNI TA'MINLASHI MASALASI: BILIM, KO'NIKMA VA TAJRIBA

Аннотация

Mazkur maqolada badiiy asarlar tarjimasida e'tiborga olinishi lozim bo'lgan asosiy jihatlariga ahamiyat berilishi muhokama qilingan bo'lib, asosan pragmatik potentsialni ta'minlashda tarjimonning bilim, ko'nikma va badiiy tarjima bilan shug'ullanish jarayonida o'ttirgan tajribasi muhimligi alohida ta'kidlab o'tilgan. Shuningdek, mazkur sohadagi olimlarning fikrlari keltirilib, ularga munosabat bildirilgan.

Kalit so'zlar: Pragmatik potentsial, pragmatik moslik, lingvistik moslik, tarjimonning stilistik mahorati.

Kirish. Badiiy tarjima murakkab jarayon bo'lib, nafaqat lug'aviy ekvivalentlarni topish, balki asarning ruhini, muallif uslubini va madaniy kontekstni saqlab qolish maqsadini ko'zlaydi. Tarjimon matnning semantik va stilistik xususiyatlarini tushunishi, shuningdek, uni qabul qiluvchi auditoriya uchun qulay va tushunarli shaklda yetkazishi zarur bo'ladi. Ushbu jarayonda tarjimon pragmatik potentsialni to'liq ta'minlash uchun ma'lum bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'lishi lozim. Tarjimashunoslikda pragmatika muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, matnni to'g'ri anglash, uni tegishli kontekstda to'g'ri talqin qilish va maqsadli auditoriyaga mos shaklda yetkazish masalalarini qamrab oladi. Ushbu maqolada tarjimonning pragmatik jihatlari turli olimlar qarashlari asosida tahlil qilinadi. Badiiy tarjima jarayonida tarjimon qanday bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerakligi, pragmatik potentsialni ta'minlash uchun qanday strategiyalardan foydalanish zarurligi muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqolada ushbu sohadagi yetakchi olimlarning fikrlari keltirilib, ularga ilmiy munosabat bildiriladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tarjimashunosligida bir qancha olimlar, tadqiqotchilar badiiy asar tarjimasi, asarning pragmatik xususiyatlarini tarjima jarayonida hisobga olinishi muhimligi xususida ko'plab izlanishlar olib borishgan. Badiiy tarjimonning pragmatik jihatlari haqida to'xtaladigan bo'lsak, mazkur sohada samarali

ishlari bilan ma'lum va mashhur Euheniya Naydani e'tirof etish lozim. E.Nayda o'zining ko'pgina asarlarida tarjimonning bir qancha funksiyalari hamda tarjimonning so'z tanlashdagi qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan qimmatli fikrlari barchamizga ma'lum. Jumladan, E.Nayda tarjimonning kommunikativ funksiya ekanligini ta'kidlab, tarjimon nafaqat tilni, balki madaniy kodlarni ham o'zlashtirishi kerakligini qayd etadi. Chunki tarjimon so'zlarning bevosita ma'nosidan tashqari, ularning yashirin konnotatsiyalarini ham anglashga qodir bo'lishi lozim deb ta'kidlaydi. Bu jihatdan Naydaniy qarashi tarjimonning madaniy kontekstni tushunish zarurligini ko'rsatadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu sohada yetuk olimlardan yana biri bu E.A.Gutt bo'lib, nafaqat tarjimadagi so'z tanlash yoki ekvivalentlikning muhimligini, balki aynan tarjima qilingan asar o'quvchiga qanday yetib boradi, uni qanday qabul qilib, asl matndagi g'oyaning qanchalik darajada yetkazib berilganligini ham tarjimon his qila olishi kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, E.A.Gutt relevans nazariyasi asosida tarjimonning matnni o'quvchi uchun qulay qabul qilinishini ta'minlash roliga urg'u beradi. Bu fikr tarjima jarayonida auditoriya ehtiyojlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Tarjimon faqat asl matnni to'g'ri tarjima qilish bilangina cheklanmay, balki uni o'quvchi tushunadigan shaklda ifodalashi ham muhimligini ham alohida ta'kidlab o'tiladi.

Pragmatik moslikni ta'minlash badiiy asar tarjimasida jarayonifagi eng murakkab jihatlaridan hisoblanib, ushbu masalaga M.Baker o'zing munosabatini bir qanha asarlarida to'xtalib o'tgan. M.Baker tarjimada pragmatik moslikni ta'minlash uchun tarjimonning madaniy kontekst va intertekstual aloqalarni tushunishi zarurligini ta'kidlaydi. Bu qarash badiiy tarjimada pragmatik tafovutlarni moslashtirish usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi deb hisoblaymiz. Shuning uchun ham har bir tarjimon nafaqat tarjima qilinayotgan tilni, uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur egallagan bo'lishi, balki matndagi har bir leksema, ibora yoki gapning aynan nima maqsadda, qanday kontekstga xosliklarini namoyon qilish uchun ishlatilganligini to'g'ri anglagan ham bo'lishi lozim. Matndagi intertekstual aloqalarni ham muallif intentsiyasini tushunish orqali tarjima jarayonida adekvatlikka erishtiradigan asosiy yo'llardan deb hisoblash mumkin.

Tarjimonlarning bilim va ko'nikmalaridan tashqari olimlarning fikriga ko'ra tarjimon o'z vazifalarini to'g'ri anglashida ham asos bor. Ya'ni L.Venutining ta'kidlashicha tarjimonning muhim vazifalaridan biri sifatida "yashirinlik" (invisibility) tamoyilini ilgari surish lozim. Uning fikricha, tarjimon asar uslubini saqlagan holda, uni tabiiy va o'quvchi uchun qulay shaklda ifodalashi kerak deb hisoblaydi. L.Venutining ushbu qarashi tarjimada tabiiylik va moslik masalarini yoritishga xizmat qiladi.

Tarjima jarayonida pragmatik va lingvistik moslikni ta'minlash muhimligini ta'kidlagan olim S.Bassnett tarjimon faqat semantik to'g'rilikka emas, balki asar stilistik va madaniy hususiyatlariga ham e'tibor qaratishi zarurligini ham eslatib o'tadi. P. Newmark esa tarjimonning nazariy va amaliy jihatlariga urg'u berib, tarjimon badiiy matnning emotsional va ekspressiv jihatlarini ham hisobga olishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu qarash tarjimonning stilistik mahorati muhimligini ko'rsatadi deb hisoblash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda badiiy tarjimada pragmatik potentsialni ta'minlash masalasi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida sifatli va chuqur tahlilga asoslangan usullar qo'llanildi. Jumladan, quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil – tarjima nazariyasiga oid ilmiy adabiyotlar, olimlarning fikrlari va ilgari surilgan konsepsiyalar o'rganildi.

Taqqoslash usuli – turli olimlarning qarashlari va nazariyalari solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi.

Pragmatik tahlil – tarjima jarayonida pragmatik potentsialning ta'minlanishi uchun qanday usullar qo'llanilishi o'rganildi.

Empirik tahlil – tarjima qilingan badiiy matnlarning misollari asosida tarjimonning stilistik va lingvistik qarorlari o'rganildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, badiiy tarjimada pragmatik potentsialni to'liq ta'minlash uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

Tarjimon madaniy kontekstni chuqur tushunishi lozim. Madaniy tafovutlar tarjima jarayonida pragmatik moslikni buzishi mumkin.

Stilistik mahorat va ijodiy yondashuv muhim hisoblanadi. Asarning muallif uslubini saqlash tarjimonning sifatiga ta'sir qiladi.

Lingvistik moslik va konnotativ ma'nolarni to'g'ri yetkazish badiiy matnning o'quvchi tomonidan qanday qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tarjimon faqat semantik to'g'rilikka emas, balki maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlarini inobatga olishga ham e'tibor qaratishi lozim.

Badiiy tarjima jarayonida pragmatik potentsialni ta'minlash uchun tarjimon lingvistik va kontekstual tafovutlarni moslashtirish strategiyalarini bilishi zarur.

Ushbu tadqiqot natijalari badiiy tarjima jarayonida yuqori sifatli va pragmatik mos tarjima yaratish uchun muhim amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.

Xulosa va takliflar. Badiiy tarjimada tarjimonning pragmatik potentsialini ta'minlash juda muhim ahamiyatga ega. Tarjimon nafaqat ikki til orasidagi semantik bog'liqlikni tushunishi, balki madaniy kontekst va auditoriyaning kutishlarini ham inobatga olishi lozim. Maqolada ko'rib chiqilgan olimlarning fikrlari shuni ko'rsatadiki, tarjimonning sifatini belgilovchi muhim omillardan biri bu tarjimonning bilim va ko'nikmalaridir. Nida, Gutt, Baker, Venuti, Bassnett kabi olimlarning qarashlari badiiy tarjima jarayonining turli jihatlarini yoritib, tarjimonning vazifalari va yondashuvlarini tushunishga yordam beradi.

Shuningdek, tarjimon quyidagi jihatlariga e'tibor qaratishi lozim:

Madaniy bilimlar: Tarjimon tarjima qilayotgan til jamiyatining madaniy hodisalarini bilishi shart.

Kontekstual idrok: Tarjima jarayonida so'zlarning bevosita ma'nosidan tashqari, ularning konnotativ, stilistik va emotsional yuklamalarini anglash lozim.

Stilistik kompetensiya: Asl asarning uslubiy xususiyatlarini saqlab qolish muhim.

Leksik va grammatik moslik: Tarjima jarayonida til birliklarining pragmatik jihatdan to'g'ri qo'llanilishi lozim.

O'quvchi auditoriyasini inobatga olish: Maqsadli auditoriyaning madaniy xususiyatlariga mos keluvchi tarjima yaratish.

ADABIYOTLAR

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge. 2018. 372 bet.
2. Bassnett S. Translation Studies. Routledge. 2002. 176 bet.
3. Chesterman A. Memes of Translation. John Benjamins Publishing. 1997. 224 bet.
4. Eco U. Experiences in Translation. University of Toronto Press. 2001. 136 bet.
5. Gutt E. A. Translation and Relevance: Cognition and Context. Basil Blackwell. 1991. 265 bet.
6. House J. Translation Quality Assessment: Past and Present. Routledge. 2015. 240 bet.
7. Jakobson R. On Linguistic Aspects of Translation. Harvard University Press. 1959. 45 bet.
8. Koller W. Einführung in die Übersetzungswissenschaft. Quelle & Meyer. 1979. 320 bet.
9. Newmark P. A Textbook of Translation. Prentice Hall. 1988. 292 bet.
10. Nida E. Contexts in Translating. John Benjamins Publishing. 2001. 240 bet.
11. Nord C. Translating as a Purposeful Activity: Functional Approaches Explained. St. Jerome Publishing. 1997. 160 bet.
12. Pym A. Exploring Translation Theories. Routledge. 2012. 192 bet.
13. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. John Benjamins Publishing. 1995. 12 bet.
14. Venuti L. The Translator's Invisibility: A History of Translation. Routledge. 1995. 368 bet.